



TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA ILMIY VA UMUMMADANIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH

Shamsiya Alimova

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: O'qituvchi - pedagogik va psixologik jihatdan o'z ixtisoslig bo'yicha maxsus ma'lumotga ega, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlariga boy, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir. O'qituvchi ta'lim jarayonida o'qitish shakllarini optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim.

Kalit so'zlar: O'qituvchi, pedagog, fazilatlar, ta'lim, muassasalar, faoliyat, shaxs, o'qitish shakli, nazariya, yangi g'oya, bilim.

Pedagogik texnika - o'qituvchining nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan umumiy pedagogic bilim va malakalari majmuidir. Pedagogik texnikaning muhim jihatlari-bu awalo, o'qituvchining mahoratini belgilovchi kasbiy ko'nikmalar hisoblanadi, ya'ni uning savodli va ifodali so'zlay olishi, o'z fikr-mulohazasi va bilimni tushunarli tilda ta'sirchan bayon qilishi, his-tuyg'usini jilovlay olishi, o'zining shaxsiy xususiyatlariga xos mimik va pantomimik qobiliyatlarga ega bo'lishi, aniq imo-ishora, ma'noli qarash rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, so'zning cheksiz qudrati orqali o'quvchilar ongiga va tafakkuriga ta'sir o'tkazishi, hozirjavoblik psixologik bilimlarga ega bo'lishi kabilardir. O'qituvchining pedagogik texnikasi qanday ko'nikma va malakalardan iborat ekanligi, pedagogik texnika vositasida o'qituvchi ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni zamonaviy talablar asosida qanday tashkil qilishi, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishida qanday ahamiyatga ega ekanligi kabi muammolar hozirgi kungacha dunyo olimlarining diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda. Hozirgi kunda pedagogik texnika tushunchasi ikkita guruhga bo'lil o'rganiladi: Birinchi guruh komponentlari o'qituvchining shaxsiy axloqiy fazilatlarini va xulqi bilan bog'liq bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida o'z-o'zini boshqarish malakalarida (refleksiya) namoyon bo'ladi:

- ta'lim-tarbiya jarayonida o'z xatti-harakatlarini boshqarishi, (miraika, pantomimika);
- ta'lim-tarbiya jarayonida o'z hissiyolini va kayfiyatini jilovlay olishi va turli nojo'ya ta'sirlarga berilmaslik;
- mukammal ijtimoiy perseptiv qobiliyatlarga (diqqat, kuzatuvchanlik, xayol) egaligi;
- nutq texnikasini (nafas olish, ovozni boshqarish. nutq tempi) bilishi va o'z o'rnida qo'llay olishi.

Pedagogik texnikaning ikkinchi guruh komponentlari o'qituvchining shaxs va jamoaga ta'sir ko'rsatish malakalari bilan bog'liq bo'lib, bu guruh ta'lim-tarbiya jarayonining texnologik tomonini qamrab oladi:

- ✓ o'qituvchining didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ qobiliyatlari;
- ✓ ma'lum bir reja asosida o'z oldiga qo'yilgan talablarning bajarilishini nazorat qilishi;





- ✓ ta'lim muassasasida va o'quvchilar jamoasida ta'lim-tarbiya bilan bog'liq bo'lgan ijodiy faoliyatni tashkil eta olishi;
- ✓ o'quvchilar bilan pedagogik muloqot jarayonini bir muvozanatda saqlab boshqara olishi.

O'qituvchining kompetentlik va kreativlik ko'nikmalari ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega. Kompetentlik-ko'pincha shaxsning faoliyat yuritishga umumiy qobiliyati va uning kasbiy tayyorgarligida namoyon bo'luvchi bilim va tajribalarga asoslangan sifatlar nazarda tutiladi. Demak, kompetensiya va kompetentlik tushunchalari bilim, malaka va ko'nikma tushunchalaridan kengroq, chunki ular shaxsning yo'naltirilganligi, muammolarni his qila olishi, sinchkovlikni namoyon qila olishi, egiluvchan fikrlashga ega bo'lishi kabi sifatlarni o'z ichiga oladi.

Kompetentlik tushunchasi nafaqat aniq bilim va ko'nikmalar, balki mos emotsiya va munosabat, xuddi shuningdek, butun bir tizimni boshqarish mexanizmi mavjud ekanligi, talab etiladigan masalalarni hal etish bilan bog'liq.

1965 yil, Massachutes universitetining tilshunos olimi N.Xomskiy tomonidan kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lim taklif etilgan.

1996 yilda Evropa Kengashi dasturi bo'yicha Bern shahrida bo'lib o'tgan simpoziumda "kompetensiya" tushunchasi "uquv", "qobiliyat", "mahorat" singari tushunchalar qatoriga kiritilgan. 1999 yilda Evropa davlatlarining ta'lim vazirlari Boloniya deklaratsiyasida ta'lim islohatlarining konseptual asoslari sifatida kompetentli yondoshuv e'tirof etildi. O'qituvchining kompetentligi-bilimdonlik, kasbiga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas'uliyatlilikni o'z faoliyatiga singdirib borish. O'z sohasining, ishining ustasi bo'lish, sohasining siru-asrorlarini har tomonlama chuqur bilish demakdir.

Pedagoglar kreativ ko'nikmalar, ya'ni bilimlarni bevosita borliqdan olish, turli xil vaziyatlarda muammoni hal etishning harakat usullari va evristik metodlarini egallaydi.

Kreativlikning mohiyati-intellekt insonning aqliy salohiyati bo'lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo'naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi. O'qituvchining kreativligi-pedagogik jarayonga ijodiy yondoshuviga aytiladi.

Kreativlik atamasi Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, hislatini bildiradi. J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

- ✓ fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olishi;
- ✓ o'ziga xoslik (originallik);
- ✓ qiziquvchanlik;
- ✓ farazlar yaratish qobiliyati;
- ✓ xayol qila olish, fantastlik (fantaziya)

Kreativlik zamonaviy pedagoglar uchun zamon bilan hamnafas borishini ta'minlab beradi. Chunki, kreativlik ish olib borish degani pedagog o'z faoliyatiga har tomonlama yondashish, ya'ni ijodiy-innovatsion yondashuvlarni talab qiladi. pedagogning kreativ tafakkurida taraqqiyot takomili, o'sishi, rivojlanishi, kengayishi va mo'tadil saqlanishining instrumenti, uning ongli quroli hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan kreativ tafakkur zamonaviy dunyoda pedagogik jarayonning eng muhim funksiyalarini amalga oshiradi.



Aqlning peshqadamligi-belgilangan muddatda ko'pchilik o'ylab ko'rishga ulgurmaydigan muammolar bo'yicha bir emas, balki bir necha yechimlarni ko'rsata olish hamda ularning barchasining o'ziga xos salbiy va ijobiy tomonlarini asoslab bera olish qobiliyati. Tafakkurning egiluvchanligi – jamiyatda qabul qilingan va an'anaviy mavjud bo'lgan, aslida to'g'ri deb o'ylangan shablon yo'nalishlar va tamoyillarning zamonaviy taraqqiyot uchun javob bera olmay qolganligini anglash, yangi yo'nalish va choralarni sezish, ularni tafakkur qila olish va shakllantira bilish, o'z faoliyatini yangidan qura olish va masala yechiminining yangi yo'nalishlariga o'zini safarbar eta olishdir.

O'qituvchi faoliyatida shaxsiy sifatlar bilan birga o'z sohasining ustasi bo'lish, pedagogic ko'nikma va qobiliyatlar ham muhim ahamiyatga ega. Uning bu ko'nikmalariga: bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik kiradi.

Hozirgi zamon ilmiy pedagogik tadqiqotlar tahliliga ko'ra, o'qituvchining kasbiy mahoratini oshirish muammolarini hal etish quyidagicha talqin etiladi:

- o'quv - tarbiyaviy jarayonni eng qulay uslublarini topish va jori etish,
- o'z mehnatini muntazam ilmiy asosda tashkil yeta olish;
- o'qituvchi pedagogik qobiliyatini va pedagogik madaniyatir oshirish:
- pedagogik muammolami mohirona hal etish yo'llarini takomilashtirish;
- amaliy va nazariy bilimlarni doimiy oshirib boorish
- kasbiy ijodkorlikni uzluksiz rivojlantirish.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Sharq va G'arb olimlari tomonidan tahlil qilingan o'qituvchining pedagogik faoliyati haqidagi ko'pgin mulohazalar hozirgi kungacha o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda, demak millati va kelib chiqishidan qat'iy nazar ajdodlar merosini takomillashtirish evaziga hozirgi kunda ta'lim va tarbiyani yanada yuksak bosqichlarga ko'tarish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Olimov, S. S. (2021). The innovation process is a priority in the development of pedagogical sciences.
2. Olimov, S. S., & Mamurova, D. I. (2021). Graphic Information Processing Technology and its Importance. *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, 10, 1-4.
3. Olimov, S. (2020). The differentiation of education is an important factor of pedagogical technology. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(11).
4. Олимов, Ш. Ш. (2015). Маънавий-ахлоқий тарбия асослари.(Монография). Т.: "Fan va texnologiya", -2015, 228.
5. Олимов, Ш. Ш. (2013). Некоторые вопросы организации урока на основании педагогических технологий. *Молодой ученый*, (5), 752-754.
6. Olimov, S. (2020). ТАЪЛИМНИ ТЕХНОЛОГИЯЛАШТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЭЛЕМЕНТИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 2(2).
7. Олимов Ш. Ш. Педагогическое мастерство преподавателя и его профессионализм в системе образования //Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-творч. форума. – 2017. – Т. 31.





8. Olimov, S. S., et al. "Prevalence of dentoalveolar anomalies in 6-16 years children according to retrospective data analysis." *International Journal of Psychosocial Rehabilitation* 24.9 (2020): 403-410.
9. ОЛИМОВ, Ш. Ш., & ХОДЖИЕВА, М. Ш. (2020). Возможности применения педагогических технологий в образовательном процессе. In *Молодежь и XXI век-2020* (pp. 228-231).
10. Олимов, Ш. Ш., & Абдукаримов, Ҳ. А. (2019). A healthy family is the basis of a healthy society. *Psixologiya*, (1), 41-45.
11. Bokiev, G. O., Olimov, S. S., & Khimmataliev, D. O. Factors Ensuring Continuity Between Higher Education Levels And Continuing Education Courses.
12. Ахмеджанов М. М., Олимов Ш. Ш. Понятие и потребность духовно-нравственного воспитания //Молодой ученый. – 2010. – №. 11-2. – С. 100-102.
13. ОЛИМОВ Ш. Ш., ХОДЖИЕВА М. Ш. Возможности применения педагогических технологий в образовательном процессе //Молодежь и XXI век-2020. – 2020. – С. 228-231.
14. Адизов Б. Р., Олимов Ш. Ш. ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАСАЛАРИДА ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ ИМКОНИАТЛАРИ //Ижтимоий Фанларда Инновация онлайн илмий журнали. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 41-47.
15. Ахмеджанов, М. М., & Олимов, Ш. Ш. (2010). Понятие и потребность духовно-нравственного воспитания. *Молодой ученый*, (11-2), 100-102.
16. Олимов, Ш. Ш., & Абдукаримов, Ҳ. А. (2019). A healthy family is the basis of a healthy society. *Psixologiya*, (1), 41-45.
17. Олимов Ш. Ш., Гасанова З. Д. Применение педагогических технологий в образовательном процессе. – 2014.
18. Олимов, Ш. Ш., & Сайфуллаева, Н. З. (2015). Основные принципы развития духовно-нравственного мировоззрения у студентов. *Инновационная экономика: перспективы развития и совершенствования*, (5 (10)), 45-51.
19. Олимов, Ш. Ш., & Сайфуллаева, Н. З. (2019). Педагогико-экономические аспекты интеграции образования, науки и производства в условиях региональных вузов на современном этапе. *Сибирский педагогический журнал*, (3), 71-82.
20. Олимов Ш. Ш., Сайфуллаева Н. З. Влияние социального развития на духовно-нравственное воспитание //тренды развития современного общества: управленческие, правовые, экономические и социальные аспекты. – 2014. – С. 186-188.
21. ОЛИМОВ, Ш. Ш., & САЙФУЛЛАЕВА, Н. З. (2020). Возможности использования «метода проектов» в процессе обучения. In *Молодежь и системная модернизация страны* (pp. 276-278).
22. Yunusov, R., Ganieva, F. A., Artikova, M. I., & Atayeva, Z. A. (2022). THE DEPENDENCE OF THE GROWTH, DEVELOPMENT AND PRODUCTIVITY OF APPLE TREES ON THE FACTORS OF CARE ON LOW-SALINE SOILS OF THE BUKHARA REGION. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(02), 773-781.





23. Pirnazarov G. F., Mamurova F. I., Mamurova D. I. Calculation of Flat Ram by the Method of Displacement //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – T. 2. – №. 4. – C. 35-39.
24. Islomovna M. F. et al. DESIGNING THE METHODOLOGICAL SYSTEM OF THE TEACHING PROCESS OF COMPUTER GRAPHICS FOR THE SPECIALTY OF ENGINEER-BUILDER //Journal of Contemporary Issues in Business & Government. – 2021. – T. 27. – №. 4
25. Shadieva S. S., Borieva D. I., Rakhimova M. A. The Importance of Agricultural Mapping in Soil Science //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – T. 2. – №. 3. – C. 5-8.
26. Mamurova, F. T., Abdullayeva, N. K., & Mallaboyev, N. (2019). USING THE «ASSESSMENT» METHOD IN ASSESSING STUDENTS KNOWLEDGE. *Theoretical & Applied Science*, (11), 80-83.
27. Mamurova, F. I., & Mustafoev, E. (2021, October). Aksonometrik Proyeksiyalarning Asosiy Teoremasi. Dimmetrik Aksonometriya Qurish. In " *ONLINE-CONFERENCES*" PLATFORM (pp. 100-103).
28. Mamurova, F. I., & ugli Mustafayev, E. I. (2021). SHADOWS IN A PERSPECTIVE BUILDING. *Conferencious Online*, 16-18.

